



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLІГІ
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

BUYRUQ

2024-yil "08" yanvar

№ 4-ij

Samarqand sh.

**Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universitetida
“Aksilkorrupsiya kovorking
markazi”ni tashkil qilish va uni
faoliyatini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-300-son qaroriga hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 28-noyabrdagi 03/23-3334-sonli ko‘rsatmasi talablariga muvofiq, yoshlar o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyadan holi jamiyat yo‘lida amalga oshirilayotgan chora tadbirlarni keng ommaga yetkazish borasida samarali targ‘ibot ishlarini tashkil qilish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining “Korruptsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limi qoshida “Aksilkorrupsiya kovorking markazi”ni tashkil qilish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida universitetning professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari va talabalari orasida muntazam ravishda targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini olib borish hamda bu borada malakali mutaxassislarni jalg etgan holda tizimdagi faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida “Korruptsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limining qoshida “Aksilkorrupsiya kovorking markazi” tashkil etilsin.

2. “Aksilkorrupsiya kovorking markazi” uchun universitetning axborot resurs markazi binosidagi 204-xona ajratilsin.

3. Bosh hisobchi A.N.Badalbayevaga:

3.1. “Korruptsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limining qoshida tashkil etilayotgan “Aksilkorrupsiya kovorking markazi”ni zamonaviy texnologiya va kommunikatsiyalar bilan jihozlash maqsadida tegishli anjomlar, kompyuter, televizor, bannerlar bilan ta’minlashni universitetning budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan o‘rnatilgan tartibda amalga oshirsin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor I.U.Raxmanov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: reja-moliya bo'limi boshlig'i **J.Norqulov** tayyorlagan buyruq loyihasi, katta yuriskonsult **A.Usmanov** roziligi, moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor **I.Raxmanovning** munosabat belgisi.

Rektor



R.Xalmuradov